

1

Sham bo'lsa yuzing, ko'yida parvona o'zim,
 Dardingga qarindosh dil-u, begona o'zim.
 Bo'yningda uzalgan o'sha soch zanjirini
 Tashla meni gardanimga - devona o'zim!

2

Ishq shabnamidan xoki bashar gil bo'ldi,
 Yuz fitnayu sho'r[1] jahonda hosil bo'ldi.
 Jon tomiriga urdilar ishq nashtarini,
 Tomdi-yu bir qatra, oti - dil bo'ldi[2].

3

Ko'nglimda firoq tufayli ming qayg'u bu kun,
 Umr iggiga charx soldi tugun uzra tugun.
 G'am ustiga g'am qo'shma buzib ahdni yana,
 Ko'nglimda firoq tufayli ming qayg'u bu kun.

4

Ul bahri muhitga kirmak istar ko'nglim,
 Yo cho'ksam-u, yo injuga to'lsa qo'ynim.
 Etsaydim ado - ishing xatarli garchi,
 Ishq rangiga evrilsa yuzim yo bo'y nim...

5

Dunyosi tugab, qorong'ulik kelsa siqib,
 Boshlar ko'tarilganda mazorlarni yiqlib,
 Bechora shahid tanim ham o'z qoniga g'arq,
 To'zoni qiyomat ichra kelmasmi chiqib...

6

Yor kokilining kufridan[3] iymon yog'ilari
 Qam no'shlabidan[4] chashmai hayvon[5] yog'ilari.
 Ul kakligi xushxirom kabi ra'nosan,
 Yursang, qadamingning changidan jon yog'ilari![6]

7

Ey, o'zini ishq ichra biluvchi yakto,
 Ta'n etma ko'rib tirikligimni, zero,
 Mavjudligim ishq tufayli, jonni etdim -
 Ul yorni mushohada qilay deb paydo.

8

Zulfi[7] deya ming dilda qiyomat qo'pdi,
 Bir torini kim topdi-yu, tutdi, o'pdi:
 Har kimsaki, topdi - topdi davlat buyuk,
 Har kimsaki, topmadi - o'shal dard topdi...

9

Yor xasta ko'ngilni begumon xohlaydi.
 So'rdim: ne uchun o'shal chunon xohlaydi?
 Ul damki, ko'zimni yo'liga tiksam zor,
 Keltirdiki mujda: o'sha jon xohlaydi...

10

Ishq yo'lida kim boshni fido deb bilmas,
 Mot etmasa ushshoqni - o'shal komilmas.
 Ko'yingda aniq rutbasi[8] bo'lmas kishining,

To boshdan-oyoq amallaringni qilmas.

11

Pok etgali tiynatimni[9] mashg'ul esame,
Ko'k kiyguchilarga[10] boshu bedil esame,
Mayxo'rga bo'libman endi bir do'sti asir,
May sotguchilarga koshki bir qul esame!

12

Bir tiyg'i jafo qolgan emas, zebo yor,
To urmagan o'lса uni dilga ming bor.
Men tavba etarman ishqidan har lahza,
Ming tavbani bir noz ila aylar bekor.

13

So'yла, ey ko'ngil, anglamish asrorini kim?
So'yла, ey quloq, tinglamish guftorini[11] kim?
Ko'rsatsa-da ma'shuq kecha-kunduz husnin,
So'yла, ey nigoh, ilg'amish diydorini kim?[12]

14

Charx, oyu kun orzuyi visolingda sening,
Sarvu gulu lola quldir oldingda sening,
Pokiza malaklarning arvohi mudom
Abjad o'qishar lavhi xayolingda sening[13].

15

Ey, nusxasisan ilohiy nomani o'zing,
Haq husnining oyinasidir nurli yuzing.
Yo'q hech ne jahrnda sendan tashqarida,
Har ne tilasang, o'zingdadir - ko'rsa ko'zing.

16

Gar yor meni o'z itim, deya lutf etar,
Yo inidan uchgan o'z qushim, deb atar.
Har nom ila tilga olsa-da, xushholman,
O'zimniki degan shu so'zi menga yetar!

17

Ishq oldi mendan dilni ham, dunyoni ham,
Aqlim-ku yo'q erdi, qo'yamadi savdoni ham.
Dedim: dilu dunyo bo'lmasa, din bordir,
O'lim seli oqizdi-yu-ketdi oni ham...

18

Sobit kishilarki, ostoningda yashar,
Yo'lingda shahid bo'lissa, joningda yashar.
Ul obi hayot ham bu qadar turguzmas,
Ishqingdan olib jon, do'stlar yoningda yashar.

19

To jonio bor - bo'lay sening posboning,
Manzilu makon menga aziz ostoning.
To bir kuni sodiq itlaring zumrasida
Olsang meni tilga, bas, bu jon qurboning!

20

Yor zulfi aro tushsa agar bitta tugun,

Yuz bitta jarohat paydo dilda shu kun.
 Ul dilda-yu, dil qoni ko'zimda qotnish,
 Ul baxt guli kuksimda yuz ochmaydi nechun?!

21

Ey yor, bilasanmi, dedim, oshiqlik ila:
 Bechora kuzim mening nega yoshga to'la?
 Paydo bo'ladi ikki ko'zimming qa'ridan
 Shirin labing orzusida daryo bir yo'la.

22

Har kimsaki, bo'lsa bandalikdan ozod,
 Bo'lmas g'amdan g'amgini-u, shodlikdan shod.
 Ko'ngilni nazargoh, aylagan Ollohdan -
 Ayri tushib, u umrini etgan barbod.

23

Kim bo'lsa agar yaxshi-yomondan ogoh,
 Har yaxshi-yomondan qo'lini tortar, oh.
 Dil bor edi-yu ilgari, ming andisha,
 Endi barisi "lo iloha illalloh".

24

Lufingdan emasdир noumid hech inson,
 Kim topsa seni mangu hayotdir ehsan.
 Qay zarraga bir lahza luff etgan esang,
 Yuksaldi u zarra ming quyoshdan chandon[14].

25

Zar xavfi yiroqdir bu jahon darveshidan,
 Tig' dahshati lozim emas oshiq kishidan.
 Ey, bosh olishimdan cho'chiysan muncha -
 Qaq oshig'i xolimasmi bosh tashvishidan?!

26

Jon ichra men ishqingni nihon qilganman,
 Dardingni sevib, mahrami jon qilganman.
 Dunyo g'amndan kechmasa, bu dil birlan
 Sen haqda musohiba qachon qilganman?!

Б†‘ Sho'r - g'avto, to'polon.

Б†‘ Bu ruboiy Abusaid Abulkayrga xam nisbat beriladi.

Б†‘ Kufr - tasavvufda bu dunyo zulmati. Yana: vahdatning kasratda mahv bo'lishi. Haqiqiy kufr abadiy fanodir xam deydilar.

Б†‘ No'shlab - shirinlab; mahbuba.

Б†‘ Chashmai hayvon - tiriklik bulog'i, obi hayot.

Б†‘ Bu ruboiy Abusaid Abulkayrga xam nisbat beriladi.

Б†‘ Zulf - ishqdag'i eng yuqori imkon darajasi, erishish niroyatda qiyin bo'lgan ilohiy xaqiqat. Zulf yana kufr zulmatiga ishora.

Б†‘ Rutba - unvon, martaba, daraja.

Б†‘ Tiynat - xulq, fe'l.

Б†‘ Bu yerda ko'k kiyguvchilar deganda tariqatda muayyan darajaga yetishgani belgisi sifatida ko'k xirqa kiyib yuradigan so'fifilar ko'zda tutilgan.

This is not registered version of TotalDocConverter

Б†‘ Guftor - so'z, so'zlash, gapirish.

Б†‘ Bu ruboiy Abu Ali ibn Sinoga ham nisbat beriladi.

Б†‘ Misraning ma'nosi: Har lahza oshiqlik darsini o'qishadi.

Б†‘ Bu ruboiy Abusaid Abulkayrga ham nisbat beriladi.